


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Korxonalar va tashkilotlar soni
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,
ming birlik*



*xususiy korxonalar,
ming birlik*




Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi.


Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra)



o'tgan yilga nisbatan o'sishi




2025- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 27 206 tani tashkil etdi, ulardan 23 578 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umuniy sondagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 29,1 foiz, sanoat – 11,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,8 foiz, qurilish – 7,5 foiz, hududiy kesimda eng ko'pi Buxoro shahrida – 27,1 foiz, tumanlardan G'ijduvon – 10,3 foiz, Romitan – 9,0 foiz, Jondor – 8,0 foiz va Buxoroda – 7,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025-yil yanvar-mart holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 176 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 172 ta;
- yirik korxonalar 4 ta.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- aprel holatiga 23 578 taga yetdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,6 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,3 foiz, qurilish – 8,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,2 foiz, tashish va saqlash – 9,7 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,0 foiz, boshqa turlari – 10,2 foiz.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(yanvar-mart oylarida, ming birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2025-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2025-yilning yanvar-mart oylarida 1 392 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 032 ta, xususiy korxonalar 48 ta, oilaviy korxonalar 57 ta va boshqalar 255 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan
korxonalar va tashkilotlar tarkibi**
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 111 nisbatan 74,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 81,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 89,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 96,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 030 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,2 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 73,1 foizga (jami qurilishdagi ulushi 48,2 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 108,6 foizga (jami qurilishdagi ulushi 24,8 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 86,0 foizga (jami qurilishdagi ulushi 27,0 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 917 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,4 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlarini soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 83,6 foizga (jami savdodagi ulushi 60,2 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 92,7 foizga (jami savdodagi ulushi 29,1 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 78,4 foizga (jami savdodagi ulushi 10,7 foiz) tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 942 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,2 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 97,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 18,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 87,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 81,1 %) tashkil etdi.

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 325 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,6 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 80,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,5 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 95,6 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,5 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 100,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,9 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 66,7 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,6 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 94,2 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,7 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 97,7 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 26,8 foiz) o'sgan.

Oilaviy korxonalar soni
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra 4 151 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga yoki 101,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 626 taga yoki 21,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 57 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga yoki 60,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra 29 541 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 112 taga yoki 7,7 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 885 ga yoki 9,1 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 032 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 220 taga yoki 27,1 foizga oshgan.




**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamgʻarmasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va boʻlinmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2025- yil 1-aprel holatiga koʻra, birlikda)




Roʻyxatdan oʻtgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- aprel holatiga koʻra 574 tani tashkil etib, ulardan 333 tasi yoki 58.0 % faoliyat koʻrsatmoqda. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan olganda 11 taga yoki 3,2 % ga kamayganligini koʻrish mumkin.


2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


	2021- y.	2022- y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Jami	310	362	315	344	333
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	33	21	15	17
sanoat	121	129	115	116	98
qurilish	34	37	24	27	21
savdo	70	94	91	114	126
tashish va saqlash	5	6	14	17	11
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22	26	20	23	20
axborot va aloqa	1	5	5	5	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	8	5	4	5
boshqa turlar	23	24	20	23	33

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Buxoro viloyati	333	122	211
Buxoro shahri	170	53	117
Kogon shahri	16	8	8
<i>tumanlar</i>			
Olot	17	1	16
Buxoro	29	16	13
Vobkent	8	3	5
G'ijduvon	11	7	4
Kogon	25	11	14
Qorako'l	14	3	11
Qorovulbozor	6	2	4
Peshku	6	1	5
Romitan	15	6	9
Jondor	5	4	1
Shofirkon	11	7	4

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarinig qo‘shma
korxonalar va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2025-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahrida 170 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 51,1 %), Kogon tumani 25 ta (7,5 %), Olot tumani 17 tani (5,1 %), Kogon shahar 16 ta (9,4 %), Buxoro tumani 29 ta (17,0 %), hamda Romitan tumanlarida 15 tani (8,8 %) tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2025-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



2025-yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (19,3 %), G'ijduvon (17,5 %), Buxoro (10,5 %), Romitan (3,5 %), Peshku (1,8 %), Kogon (3,5 %), Jondor (3,5 %), Vobkent (3,5 %), Shofirkon (7,0 %), Qorako'l (7,0 %), Olot (10,5 %), Qorovulbozor (1,8 %) tumanlari va Kogon shahar (10,5 %), ulushiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.